

JÁMIYETLIK HÁM EKONOMIKALÍQ ILIMLER

Tariyx. Huqıqtanıw. Ruwqıylıq

QORAQALPOQLAR ETNOLOGIYASI TARIXIGA DOIR

M.A.Abdullayev – mustaqıl tadqiqotchi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Tayanch soʻzlar: etnologiya, etnogenez, etnografik ekspeditsiya, anʼana va dasturlar, urf-odat, axloqiy qadriyatlar, qoraqalpoq urugʻlari, anʼanaviy ijtimoiy institutlar.

Ключевые слова: этнология, этногенез, этнографические экспедиции, национальные традиции, обычай, моральные ценности, каракалпакские роды, традиционные социальные институты.

Key words: ethnology, ethnogenesis, ethnographic expedition, traditions and programs, custom, moral values, Karakalpak seeds, traditional social institutions.

Oʻzbekiston mustaqillikka erishgach birinchi navbatda xalqning tarixiy xotirasini tiklash, tarix fanini har tomonlama takomillashtirish vazifasi davlat siyosati darajasiga koʻtarildi. Shu asosida koʻp millatli yurtimizda yashovchi xalqlarning tarixi, madaniyati, kelib chiqishini oʻrganish, milliylikni saqlash, chuqur tadqiq etish masalasi yuzaga keldi. Boshqa xalqlar bilan bir qatorda qoraqalpoq xalqi etnologiyasi tizimida qoraqalpoq xalqining kelib chiqishi, yashash tarzi, madaniyati, kiyim-kechak, uy-joy qurilishi bilan bogʻliq jihatlar, oʻzgachalıkları, marosim va urf-odatlarini oʻrganish borasida oʻziga xos yoʻnalishlar shakllandi. Oʻzbekiston hududida, xususan Xorazm vohasi va Qoraqalpogʻiston yerlarida XX asrning boshlarida tashkil etilgan etnografik ekspeditsiyalarda, xususan, 1945-yilda yangidan boshlangan T.A.Jdanko rahbarligidagi qoraqalpoq etnografik otryadining tadqiqotlarida, 80-90-yillarda A.S.Morozova, N.P.Lobacheva, Yu.V.Knorozov, Kubel, I.M.Sadgyan, I.V.Bogoslovskaya va boshqalar ishtirokida katta hajmli ishlar amalga oshirildi. Mahalliy etnograf-olimlar S.K.Kamalov, A.T.Bekmuratova, X.Ye.Yesbergenov, K.Ayimbetov, A.Utemisov R.S.Kamalova, shuningdek, yosh olimlar T.X.Yesbergenova, N.A.Tleubergenova, E.E.Kalbanova, A.E.Bijanov, Z.I.Kurbanova, S.X.Yesbergenovlar mazkur ekspeditsiya va etnografik otryadlarda faoliyat yuritishi natijasida qoraqalpoqlar etnologiyasi, turmush-tarzi, etnomadaniy aloqalar masalalari borasida ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Ular jamlagan qimmatli maʼlumotlar, aniq faktlar va dalillarga asoslanib chiqarilgan ilmiy-nazariy xulosalar asosida qator maqolalarda yoritib borildi, dissertatsiyalar tadqiq qilindi.

Chop etilgan maqolalarda bildirilgan fikrlar oʻziga xosligi bilan bir qatorda qoraqalpoqlar turmush tarzi, diniy eʼtiqod bilan bogʻliq anʼana va dasturlar, urf-odatlar hamda ularning zamonaviy jarayonlar bilan uygʻunlashuvi boʻyicha ilgari surilgan fikrlar, xulosa va yechimlar muhim ahamiyatga ega. Qoraqalpoqlarning kundalik turmush tarzi, milliy kiyim-kechak, nikoh va oila qurishning zamonaviy shakllariga bagʻishlangan sarmazmun risola va maqolalar muallifi, dastlabki qoraqalpoq etnograf-olimlardan biri sanalgan X.Ye.Yesbergenovning etnografik ekspeditsiyalari va tadqiqotlarida zikr qilingan.

XX asrning 90-yillarida I.M.Sadgyanning etnografik ekspeditsiyalari natijasida tadqiq qilingan qoraqalpoq oilalari, zamonaviy oilada bola tarbiyasi kabi masalalarga bagʻishlangan maqolalarini, sanʼatshunos olimi I.V.Bogoslovskaya [1] ning qoraqalpoq milliy kiyimlari, naqqoshlik sanʼati kabi mavzulardagi risolalarini ham tadqiqot mavzuiga oid manba sifatida koʻrsatish mumkin. Umuman olganda, mustaqillik davrigacha nashr etilgan adabiyotlarni, maqolalarni tahlil qilar ekanmiz, mazkur davr mualliflari sotsialistik qurilish sharoitida Oʻrta Osiyo xalqlari turmush tarzi va yashash sharoitida boʻlib oʻtgan oʻzgarishlarni, turkiy xalqlar tarixiy anʼalarining ayrim oʻxshashlik jihatlarini koʻrsatib berishni oʻz oldilariga maqsad qilib qoʻyganlar.

Maʼlumki, Oʻzbekiston mustaqillikka erishganidan soʻng, milliy oʻzlikni anglash, tarixiylik, milliy anʼana, urf-odatlar va qadriyatlarimizni, jumladan, diniy qadriyatlarini qayta tiklash hamda oʻrganishga katta eʼtibor qaratila

boshlandi. Oʻtgan davr mobaynida etnolog-tadqiqotchilar maʼnaviyat, madaniyat, madaniy meros, mentalitet, milliy kolorit, anʼana, qadriyat kabi tushunchalarning milliy shakliga va mazmuniga qaytdilar hamda etnologiyaga tegishli etnos nazariyasi, etnogenez va etnik tarixga oid yangi nazariy-metodologik konsepsiyalar va qarashlar yaratildi, xalqning turmush tarzidagi oʻrni masalasiga zamonaviy qarashlar asosida yondashuvning paydo boʻlishi koʻzga tashlana boshladi.

Istiqlolning dastlabki yillarida etnograf-olim va tadqiqotchilar tomonidan qoraqalpoq xalqining kelib chiqish muammolari, turmush tarzidagi oʻzgarishlar, taʼlim-tarbiya muammolari va islom dini, oilaviy marosim va urf-odatlarida islomiy anʼanalar, turli xil urf-odatlar, marosimlar va qadriyatlar tizimi, milliy kiyim-kechaklar, nikoh va oila qurish masalalari, qoraqalpoqlarning anʼanaviy toʻy marosimlaridagi qadimdan qoʻllanib kelayotgan ijtimoiy-axloqiy jihatlar, qoraqalpoqlarning anʼanaviy ijtimoiy institutlari kabi mavzularda qator ilmiy risola va maqolalar nashr etildi. Mazkur tadqiqotlar qatoriga X.Ye.Esbergenov, J.Xoshniyazov, R.S.Kamalova, R.Baliyeva, M.A.Qarlibayev, Z.I.Kurbanova, T.X.Yesbergenova, N.A.Tleubergenova, S.X.Yesbergenova, shuningdek, 2001-2020-yillar davomida I.V.Bogoslovskaya, A.X.Doniyorov [2], M.A.Karlibayev, Z.I.Kurbanova, I.V.Piskunova, S.X.Yesbergenova, M.M.Davletiyarov, M.B.Utebayev, Q.J.Turekeyev, A.Saytov, rus etnograf-olimasi E.L.Kubel kabi qator tadqiqotchilarning ishlarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Qoraqalpoq etnogenezi masalasi tarixshunosligi boʻyicha qator yirik tadqiqotlar olib borgan, qoraqalpoq xalqining kelib chiqishi masalasi oʻrganilishini keng tahlil etgan olim S.P.Tolstovning “K voprosu o proisxojenii karakalpakskogo naroda”, Osnovniye problemi etnogeneza narodov Sredney Azii” nomli keng koʻlamli ishlari, T.A.Jdankoning “Ocherki istoricheskoy etnografii karakalpakov”, “Problemi etnogeneza karakalpakov” asarlari, L.S.Tolstovanning “Utochneniye voprosov etnogeneza karakalpakov” kabi yirik tadqiqotlari mazkur masala rivojlanishining asosiy bosqichlari, qoraqalpoq xalqining kelib chiqish muammosining oʻrganilishi keng tahlil etilgan. Mustaqillik yillarida S.K.Kamalov, J.Xoshniyazov, M.Karlibayev rahbarligida amalga oshirilgan tarixiy-etnografik ekspeditsiyalar, yosh etnograflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida koʻplab savollar ilmiy jihatdan asoslandi.

M.A.Karlibayevning tarixiy etnografik tadqiqotlarida qoraqalpoq xalqining ijtimoiy hayotida maktab, madrasa, taʼlim va tarbiya masalalari, insonning maʼnaviy-axloqiy fazilatlarini shakllanishida musulmon ruhoniylari, kundalik turmush-tarzida ziyoratlarning roli, ijtimoiy faoliyat va boshqa masalalar bilan bogʻliq jihatlar haqida soʻz yuritilgan boʻlib, ularda savodxonlikka oid eʼtiborga molik maʼlumotlar mavjud [3]. Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida xalq maʼnaviyatini, diniy savodxonligini oshirish jarayoni ijtimoiy zaruriyatga aylanayotgani hech kimga sir emas. Bu esa, oʻz navbatida qoraqalpoq xalqi turmush tarzida islom dini, shariat meʼyorlarida qay darajada aks etganligini oʻrganish muhim ekanligini anglatadi.

2014-yilda Z.I.Kurbanova bilan hammualliflikda, qoraqalpoq va rus tillarida tayyorlangan “Qaraqalpaq kiyimi. Fotoalbom” (Karakalpakskiy kostyum. Fotoalbom) galereya-majmua[4]si moddiy madaniyatning muhim tarkibiy qismi sanaluvchi xalq an’anaviy kiyimlari, qoraqalpoq xalqi ijtimoiy turmush-tarzidagi kiyim-kechaklar to’g’risidagi nodir asar sifatida ko’rsatish mumkin. Ta’kidlash joizki, hammualliflikda yaratilgan mazkur kitob-albom mustaqillik davridagi qoraqalpoqlar turmush tarzida diniy va milliy qadriyatlarning tutgan o’rni va zamonaviy jarayonlar bilan uyg’unlashuvi xususida to’g’ri ilmiy xulosalar chiqarishda muhim ahamiyatga ega.

Qoraqalpog’istonda etnografik fanlarning shakllanish bosqichlari va bugungi holati, tashkil etilgan arxeologo-etnografik ekspeditsiyalar, ularning natijalari to’g’risida tarixchi etnograf Z.I.Kurbanovanning shu mavzu tahliliga bag’ishlangan “Etnograficheskaya nauka Karakalpakstana: etapi stanovleniya, sovremennoye sostoyaniye” nomli monografiyasida chuqur va tahliliy ma’lumotlar, ilmiy-nazariy fikrlar batafsil bayon etilgan.

Keyingi yillarda olim tomonidan e’lon qilingan ishlarda qoraqalpoqlarning milliy va an’anaviy kiyim-kechaklar, shuningdek, kiyim-kechaklardagi ranglar mohiyati, milliy bezak va taqinchoqlar bilan bog’liq tasavvur va e’tiqodlar, qoraqalpoq misllarida ayollar obrazi talqini, ayollarni muqaddas qadamjolarga ziyorati xususidagi etnografik tahlillar o’ziga xos tarzda tadqiq qilingan. Mazkur ishda kiyim-kechak bilan bog’liq “*bes kiyim*”, shuningdek, diniy e’tiqod, ayollarning mushtarak tasavvurlarga moneligi, ishonchi, ta’sir kuchi, transformatsion jarayonlar va o’zgarishlar, ularning qoraqalpoq (ayol)lar turmush-tarzida alohida o’ringa ega ekanligi, oilaviy rasm-rusumlar chuqur tahlillanganini ko’rishimiz mumkin [5].

Etnologiyada ma’lum bir xalqning qadriyatlari, an’analari, xususan an’analarning hayvonot olami bilan bog’liq tasavvurlari jihatini tadqiq etish juda muhim masalalardan biri bo’lib qolmoqda. Bu borada S.X.Yesbergenovanning olib borgan tadqiqot ishlari diqqatga sazovor. Uning hayvonlar kulti bilan bog’liq tasavvurlarini qoraqalpoq xalqi misolida o’rganish, an’anaviy dunyoqarash ko’rinishlari, jumladan, e’tiqod bilan bog’liq qarashlar, ayrim jihatlarini o’rganishda boshqa xalqlarda mavjud bo’lgan munosabatlar bilan qiyosiy tahlil qilingan.

Shuningdek, mustaqillik yillarida tarixchi-etnograf M.M.Davletiyarov ham ko’p yillik tajriba va kuzatuvlari asosida yozilgan “Qoraqalpoqlarning an’anaviy ijtimoiy institutlari” deb nomlangan monografiyasini e’lon qildi. Olim ilk bor qoraqalpoqlarning an’anaviy ijtimoiy institutlari masalalari: qoraqalpoq xalqi turmush tarzida urug’larning bo’linishi, qoraqalpoq urug’lari (*urru*) – ijtimoiy turmush tarzini tartibga soluvchi institut ekanligi, urug’larning o’z-o’zini anglashi va uning xususiyatlari, oila instituti, oilaviy qarindoshlik munosabatlari (murindiq), qo’shnihilik jamoasi (*meshit qawim*), o’zaro yordam (*kómek*), ko’cha biyi (*kóshe biy*, *aqsaqal*) va boshqalar

haqida qoraqalpoq xalqi ijtimoiy hayotidagi juda muhim ma’lumotlar keltirilgan [6].

Kundalik turmush tarziga bag’ishlangan eng sarmazmun ishlardan biri sifatida etnograf-olim M.B.Utebayev [7] tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarni alohida qayd etish lozim. Jumladan, mehmondo’stlik instituti va u bilan bog’liq an’ana va qadriyatlar, marosimlar, etiket, yosh (qoraqalpoq) kelinchaklarining axloq me’yorlari va etiketi, ayollarning burch va vazifalari, qoraqalpoq xalqi an’anaviy e’tiqodlari va tasavvurlari bilan bog’liq qarashlar, axloqiy qadriyatlar falsafiy jihatdan tahlil etilgan.

Qoraqalpoqlarning an’anaviy e’tiqodlari va tasavvurlari to’g’risidagi dastlabki ma’lumotlar XVIII-XIX asrlarda yashagan rus sayohatchi va geograflari bo’lgan D.Gladishev, I.Muravin, o’lkashunos va tarixchi, geograf P.I.Richkov, A.V.Kaulbars, venger sharqshunosi va sayohatchisi A.Vamberlar tomonidan qayd qilingan. Shuningdek, ushbu ma’lumotlar qoraqalpoq mumtoz adabiyoti namoyondalari Ajiniyoz va Berdaq asarlarida ham o’z aksini topib, XX asrning 50-90-yillarida esa T.A.Jdanko, S.K.Kamalov, X.Ye.Yesbergenov kabi qator olimlarning ilmiy ishlarida mazkur masalalarning ayrim jihatlarini yoritilgan. Mustaqillik yillarida ushbu mavzu bo’yicha aksariyat tadqiqotlar amalga oshirildi. Jumladan, etnograf Q.J.Turekeyevning tadqiqotlarida diniy e’tiqod, xususan, totemizm, animizm, hayvonlar kulti bilan bog’liq qadimiy diniy e’tiqodlar haqida so’z boradi. Shuningdek, nikoh to’yi (nikoh, nikoh suvi, chaqaloqqa ism qo’yish va b.), dafn va ta’ziya bilan bog’liq an’anaviy urf-odat va marosimlar, qoraqalpoqlar ijtimoiy hayotida islom dini va islomiy an’analar kabi masalalar xususida asosli fikrlar mulohaza qilinadi. Va yana, dala materiallari asosida qoraqalpoq xalqi an’anaviy turmush tarzida saqlanib qolgan zardushtiylik kabi qadimiy diniy e’tiqodlar bilan bog’liq marosimlar, marosim taomlari, shuningdek, farzand tug’ilishiga xos urf-odat va an’analar haqida ma’lumotlar taqdim etilgan. Mazkur masalalar yechimi maxsus tadqiq qilingan bo’lib, muammoni o’rganish jarayonida jamiyatda diniy marosimlarni amalda tatbiq etilish shakllari, qator diniy marosim va urf-odatlarini tahlil qilgan [8].

Muammoning mohiyati shundan iborat ediki, o’tmishni o’rganishda ko’plab savollar zamonaviy tadqiqot doirasidan tashqarida qolib keldi. Xulosa qilib aytganda, qoraqalpoqlar etnogenezi tafsilotlarini o’rganish va targ’ib qilish masalasi mustaqillik yillaridan keyin yangi pog’onaga ko’tarildi. Shuningdek, mazkur davrda yaratilgan yangi adabiyotlar sovetlar davrida yaratilgan adabiyotlardagi tadqiqot va ma’lumotlardan o’zining xolisligi, har tomonlama chuqur tahlil ekanligi, to’ldirilganligi va ayniqsa ko’p qirraliligi bilan ajralib turadi. Bizning kelgusidagi tadqiqotlarimiz hozirgi kun tartibidagi dolzarb vazifa bo’lib, ushbu masalalarni yana-da mukammalroq, puxtaroq tadqiq etish, xususan qoraqalpoq etnologiyasini chuqur va mufassal o’rganilishi uchun debocha vazifasini bajarishiga shubha yo’q.

Adabiyotlar

1. Богословская И.В. Киймешек. //SAN’AT. 2003. № 2. Ўша муаллиф: Десять каракалпакских саукеле. // ЭО. 2014. №4. Тай-нопись каракалпакского узора // SAN’AT. 2008. № 2.
2. Дониёров А.Х. Из истории этнографического изучения каракалпакского народа//Вестник ККО АНРУз. 2001. №4. Ўша муаллиф: К вопросу изучения этнографии каракалпакского народа//Вестник ККО АНРУз. 2001. №6.
3. Ислам и общество в современном Каракалпакстане: историко-этнографические исследования. Руководитель темы: Карлыбаев М.А. Нукус, 2009. Ўша муаллиф: Некоторые данные зарубежной историографии по истории каракалпакцев // Вестник ККО АН РУ. 2008. №2.
4. Карлыбаев М.А., Курбанова З.И. Каракалпакский костюм. Альбом. Нукус: «Илим», 2014.
5. Курбанова З.И. Этнографическая наука Каракалпакстана: этапы становления, современное состояние. –Нукус: «Илим», 2020. Ўша муаллиф: Курбанова З.И. Одежда военного и послевоенного времени в мемуарах и рассказах каракалпакстанцев. О’zbekiston tarixi jurnali. 2021, №2.
6. Давлетяров М.М. Традиционные социальные институты каракалпакцев. –Нукус: “Илим”, 2019.
7. Утебаев М.Б. Правила поведения и этикет молодой каракалпакской невесты. Материалы международной конференции «Кыдырбаевские чтения». Актобе, 2016. Ўша муаллиф: Из истории изучения гостеприимства и гостевого этикета у каракалпакцев (к вопросу трансформации обычаев гостеприимства). // Вестник ККОАНРУз. 2020. № 4.
8. Турекеев К.Ж. Реликты почитания волка у каракалпакцев. Хоразм Маъмун академияси Ахборотномаси. 2021. №4. Ўша муаллиф. Обычаи и верования, связанные с рождением ребёнка у каракалпакцев. История и археология Турана. –Самарканд: 2016 №2.

REZYUME. Maqolada Xorazm vohasi va Qoraqalpog'istonda mustaqillikgacha va mustaqillik davrida amalga oshirilgan etnografik ekspeditsiyalarning o'ziga xos jihatlari aks etgan. Xususan, mustaqillik yillarida yosh etnograf-olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot ishlarining tahliliy natijalari haqida so'z boradi.

РЕЗЮМЕ. В статье отражены особенности этнографических экспедиций, проводившихся в Хорезмском оазисе и Каракалпакстане до и в период обретения независимости. Рассматриваются аналитические результаты исследований, проведенных молодыми учёными-этнографами в годы независимости.

SUMMARY. The article reflects the features of ethnographic expeditions carried out in the Khorezm Oasis and Karakalpakstan before and during the period of Independence. The analytical results are considered of the research work carried out by young ethnographers in the years of independence.

MILLIY URF-ODATLAR VA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA TURISTIK MARSHRUT ISHLAB CHIQUISHDA XIZMATLAR KO'RSATISH TALABI

A.Abdullaev – *tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

A.Ermanov – *katta o'qituvchi*

E.Erimbetov – *magistrant*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: turizm, turistik marshrut, urf odat, ko'ngilochar o'yinlar, ekzotik safar, Navruz, milliy o'yinlar, agroturizm, mehmonxona, palatkalar, guruhlar.

Ключевые слова: туризм, туристический маршрут, обычаи, развлекательные игры, экзотическое путешествие, Navruz, национальные игры, агротуризм, гостиница, палатки, группы.

Key words: tourism, tourist route, customs, entertainment games, exotic trip, Navruz, national games, agrotourism, hotel, tents, groups

Turizmdagi maxsus turlar uchun marshrutlarni turistik marshrutda xizmatlar ko'rsatish talabi bo'yicha ikki guruhga bo'lishimiz mumkin:

1-guruh - Alohida turistik marshrutni talab qilmaydigan turizmning maxsus turlari;

2-guruh - Alohida turistik marshrutlar ishlab chiqishni talab qiladigan turizmning maxsus turlari. Turizmdagi maxsus turlar geografiyasidan ma'lumki [4], hozircha biz O'zbekistonda turizmdagi maxsus turlarning 11 turini ro'yxatga oldik. Bu turlar ham jami 51 tarmoqqa, ko'rinishlarga bo'linib ketadi. Birinchi guruhda turgan maxsus turlar alohida turistik marshrutlar ishlab chiqishni talab qilmasligining sababi bu turlar resurslari – obyektlari, asosan shaharlarimiz, tumanlarimiz markazlarining ichida yoki atroflarida joylashganligidir.

Ma'lum bir shaharga kelgan har qanday darajadagi turistni maxsus turlar obyekti ga taklif qilish turoperatorning tadbirkorligiga bog'liq. Maxsus tur shahar ichida yoki atrofida (masofa yaqin) bo'lganligidan turistik marshrutdagi asosiy xizmatlar: marshrutdagi to'xtashlar vaqtida, dam olish, ko'ngilochar o'yinlar o'tkazish, ekzotik safar, tunash kabilar talab qilinmaydi.

Turist maxsus tur obyekti bilan tanishgach, tomosha yoki so'rab surishtirishlar, rasm yoki videoga olgach o'zi to'xtagan mehmonxonaga qaytadi. Turistik marshrutda yuqorida qayd qilingan xizmatlarning barchasi turist yashayotgan mehmonxona ma'muriyati tomonidan amalga oshiriladi. Qayd qilingan mulohazalardan keyin 1-guruh quyidagicha to'ldirilishi mumkin.

Birinchi guruh – Alohida turistik marshrutni talab qilmaydigan turizmning maxsus turlari: Milliy madaniyatga qiziqish turizmi, Etnik va sog'inish turizmi, Milliy san'at turizmi, Milliy hunarmandchilik turizmi, Milliy ustachilik turizmi.

Guruhdagi «Etnik va sog'inish turizmi»ning alohida turistik marshrutlar talab qilmasligining sababi bu turni amalga oshiruvchi turistlar aksariyat hollarda «o'zboshimchalik» usulini qo'llaydi, ya'ni u boradigan joyini biladi va turistik firma yoki turizm operatori xizmatiga harajat qilishni xohlamaydi. Bu holatning yana bir sababi «sog'ingan» yaqinlari, do'stlari, o'rtoqlari mehmonxona xizmatlarining barchasini unga bepul taklif etadi (mehmon sifatida). Uchinchidan, bu turdagi turistlar guruhlarini tashkil qilmaydi, aksincha, yakka yoki oila tarkibida harakatlanadi.

Etnik, etnografik turizm da deyarli tadqiqotchitarixchilar, adabiyotshunoslar, qiziquvchilar (bir yoki bir nechta turist) bo'lganligidan maxsus marshrut ishlab chiqish zarurati yo'q. Etnograf turistlar asosiy holatlarda tarjimon yo'lboshlovchi va transport turini ijaraga olib bir manzildan yoki bir aholi maskanidan ikkinchi bir manzilga

erkin harakat qilishadi. Ular ancha oddiyroq turistlar bo'lganligidan qishloqlarda, ovullarda yoki tuman markazlaridagi oddiy mahalliy mehmonxonalarda tunab, xizmatlarning deyarli barchasini o'ziga-o'zi xizmat usulida bajarib ketaveradi.

Ikkinchi guruhga kiritilgan maxsus turlarning «alohida turistik marshrutlar ishlab chiqishni talab qilishi»ning bosh sababi – bu turlarning shahar va tuman markazlaridan uzoqda joylashganligidir. Turistik resursga, obyektga borgan turist uchun bunday joylardagi birinchi muammo dam olish va tunash joylari va bu joylarda ko'rsatiladigan xizmatlar bo'lib qoladi.

«Milliy o'yinlar turizmi» bilan kelgan turist, albatta qishloqlardagi aholining milliy o'yini tomoshalariga qiziqqanligi uchun boradi. Masalan, ko'pkari-uloq o'yini, qo'chqor urishtirish tomoshalarini, asosan respublikamizning qishloqlarida yashovchi aholi o'zlarining sunnat to'ylarida, xalq bayramlari («Navro'z», Hosil bayrami va h.k.) da tashkil qilishadi. Ayniqsa, xalqaro turizmdagi turistlar oqimini jalb qilish imkoniyatlari juda salohiyatli bo'lgan «ko'pkari» asosan respublikamizda paxta yig'interimi tugagandan so'ng – noyabr oyidan boshlanib, mart oyi – «Navro'z» bayramigacha davom etadi. Bu davr kuzqish mavsumi bo'lib «ko'pkari» o'yinini tomosha qilish uchun maxsus transport turida qishloqlarga, tog'oldi rayonlariga, adir hududlariga borish kerak.

Ikkinchidan, dam olish, tunash sharoitlari, xizmatlar ko'rsatishni tashkil qilish lozim bo'ladi. Bu holatda turizmdagi turlardan majmuali foydalanish tamoyilini qo'llash maqsadli bo'ladi. Aniqrog'i tog'oldi, milliy o'yinlar o'tkaziladigan katta-katta, g'uch joylashgan qishloqlarda, xo'jaliklar markazida «turistik lagerlar» majmuasini yaratish turizmni rivojlantirishda maqsadli yo'nalishdir. Bu turistik lagerlarda joylashib olgan turist milliy o'yinlarni o'z vaqtida tomosha qilishi, bo'sh vaqtlarda lager atroflariga ekskursiyalarga borishi, mahalliy aholi hayoti bilan tanishishi, muloqotlarda bo'lishi imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Qishloq va fermerlar hayoti turizmida turist qishloq aholisi yoki fermer bilan birga yashashi, ishlashi mumkin. Chet davlatlarda bu turdan foydalanish shunday yo'lga qo'yilgan. G'orshunoslik va tabiiy-tarixiy tasvirlar turizmini shakllantirishda albatta turistik marshrutlar ishlab chiqiladi. G'orshunoslik turizmida ko'p hollarda turistin dam olishi, tunashi va ovqatlanishi uchun «palatkali» joylashtirish usulini qo'llash lozim bo'ladi. Qayd qilingan mulohazalardan keyin 2- guruh quyidagicha to'ldirilishi mumkin:

Ikkinchi guruh - Alohida turistik marshrutlar ishlab chiqishni talab qiladigan turizmning maxsus turlari. Qishloq va fermerlar hayoti turizmi, tabiiy-tarixiy tasvirlar turizmi. Milliy o'yinlar turizmi. G'orshunoslik turizmi